

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MARIFAT ORQALI OZODLIK G‘OYASI

Abduvaliyeava Marjona Hasan qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti 1-kurs talabasi

e-mail: abduvaliyevamarjona04@gmail.com

Ilmiy rahbari: Ravshan Hakimov

Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *maqolada jadidchilik harakatining yetakchi arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma‘rifiy, siyosiy va madaniy faoliyati tahlil qilinadi. Unda Behbudiyning ta‘lim islohotlari, yangi usul maktablarini tashkil etishi, matbuot va teatr orqali xalq ongini uyg‘otish yo‘lidagi ishlari hamda mustamlakachilik siyosatiga qarshi ma‘rifiy kurashdagi roli yoritiladi. Shuningdek, uning milliy uyg‘onish jarayonidagi tarixiy o‘rni baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, ma‘rifatparvarlik, yangi usul maktablari, milliy uyg‘onish, matbuot, teatr, mustamlakachilik, ijtimoiy islohotlar.*

ИДЕЯ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ О СВОБОДЕ ЧЕРЕЗ ПРОСВЕЩЕНИЕ

Абдувалиева Маржона Хасан кизи

Государственный педагогический институт Гулистан

Факультет точных и естественных наук, студентка 1 курса

e-mail: abduvaliyevamarjona04@gmail.com,

Научный руководитель: Равшан Хакимов,

*старший преподаватель Государственного педагогического
института Гулистан*

Аннотация: *в статье анализируется просветительская, политическая и культурная деятельность видного деятеля движения джадидизма Махмудахо‘жа Бехбуди. Рассматриваются реформы Бехбуди в сфере образования, создание им школ нового типа, деятельность по пробуждению народного сознания через прессу и театр, а также его роль в просветительской борьбе против колониальной политики. Кроме того, оценивается его историческая роль в процессе национального возрождения.*

Ключевые слова: *джадидизм, просвещение, школы нового типа, национальное возрождение, пресса, театр, колониализм, социальные реформы.*

MAHMUDKHOJA BEHBUDIY'S IDEA OF ACHIEVING FREEDOM THROUGH ENLIGHTENMENT

Abduvalieava Marjona Khasan kizi

Gulistan State Pedagogical Institute

Faculty of Exact and Natural Sciences, 1st-year student

e-mail: abduvaliyevamarjona04@gmail.com,

Scientific supervisor: Ravshan Hakimov,

Senior Lecturer at Gulistan State Pedagogical Institute

Abstract: *the article analyzes the educational, political, and cultural activities of Mahmudkhoja Behbudi, a prominent figure of the Jadid movement. It examines Behbudi's educational reforms, the establishment of new-method schools, his efforts to awaken public consciousness through the press and theater, as well as his role in the intellectual struggle against colonial policies. In addition, his historical role in the process of national revival is assessed.*

Keywords: *jadidism, enlightenment, new-method schools, national revival, press, theater, colonialism, social reforms.*

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan eng muhim yangilanishlardan biri jadidchilik harakatining shakllanishi va keng tarqalishidir. Jadidlar tubdan yangicha ta'lim tizimini yaratish, ma'rifat orqali jamiyatni uyg'otish va milliy ongini mustahkamlashni o'z oldilariga asosiy vazifa qilib qo'ygan edi. Ular yangi usuldagi maktablar ochib, dunyoviy fanlarni o'rgatishga qaratilgan o'quv qo'llanmalar yaratdilar, gazeta va jurnallar nashr etib, ilg'or g'oyalarni targ'ib qildilar, shuningdek, ayollarning savodini oshirish zarurligini qat'iyat bilan ilgari surdilar [3], [4]. Bu jarayon Turkiston xalqlari orasida milliy uyg'onishning kuchayishiga zamin yaratdi.

Jadidchilik harakatining yetuk namoyandalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudi bo'lib, u xalqni uyg'otish, mustamlakachilik zulmidan ozod etish va ma'rifat tarqatish g'oyalarining faol targ'ibotchilaridan edi. Behbudi 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Otasi Behbudxo'ja Solixo'ja o'g'li Ahmad Yassaviy avlodidan bo'lib, diniy bilim sohibi va imom-xatib bo'lgan. Yoshligidan ilmga chanqoq bo'lgan Mahmudxo'ja avval tog'asi mulla Odil qo'lida arab tilini o'rgandi, keyinchalik Buxoro madrasasida tahsil oldi. Biroq ota-onasining vafoti sabab moddiy qiyinchiliklarga duch kelib, o'qishini davom ettira olmadi. Samarqandga qaytganidan so'ng Muhammad Siddiq qozixonasida mirzolik qildi va qisqa vaqt ichida muftiy darajasiga ko'tarildi [1]. Bu davrda Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosati yanada kuchayib, xalq noroziligi o'sib bordi. Qo'zg'olonlar esa shafqatsiz bostirilardi. Bu holat Behbudi dunyoqarashi va siyosiy pozitsiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. U mustamlakachilarga qarshi qo'zg'olon orqali emas, balki ma'rifat orqali kurashish samaraliroq yo'l ekanini anglab etdi [2]. 1899-1900-yillardagi haj safari davomida u boshqa

musulmon mamlakatlaridagi siyosiy va ma'naviy jarayonlarni kuzatib, ozodlikka erishish yo'llarini tahlil qildi.

Behbudiy Turkistonga qaytgach, xalqni jaholatdan qutqarishning yagona yo'li keng ma'nodagi ma'rifat tarqatish ekanligini anglab, bu borada keng qamrovli faoliyat boshladi. 1903-yilda u yangi usul maktablarini ochdi, 1908-yilda esa Samarqandda kutubxona tashkil qildi. Kutubxona ikki smenada, kunduzgi va tungi vaqtda ishlagan bo'lib, unda 600 dan ortiq kitob, gazeta, jurnal va risolalar mavjud edi. 1914-yilga kelib u Qrim, Turkiya, Bolgariya, Avstriya va Germaniyadan ham ko'plab kitoblarni olib kelib, kutubxona fondini yanada boyitdi [1], [3]. Behbudiy matbuotni xalqni uyg'otishning eng muhim vositasi deb bildi. U "Samarqand" gazetasi asoschilaridan biri bo'ldi, shuningdek, 1913-yildan boshlab "Oyna" jurnalini nashr ettirdi. Bu nashrlarda maktab islohoti, yangi usulda dunyoviy bilimlar berish, ayollar ta'lim olishi zarurati, savodsizlikning illatlari haqida fikrlar chuqur yoritildi. Mustamlakachi ma'murlar esa savodli va ongli xalqni boshqarish qiyin bo'lishini bilganliklari bois gazeta va jurnal faoliyatini to'xtatishga urindilar [4]. Behbudiy madaniy-ma'rifiy ishlar bilan cheklanib qolmay, teatr san'atini ham millatni uyg'otishning yangi vositasi sifatida qo'lladi. 1914-yilda u milliy teatr asoschilaridan biri sifatida "Padarkush" dramasini yaratdi. Ushbu asar Turkiston sahnasida marifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilgan ilk dramaturgik asarlardan biri bo'lib, unda jaholatning eng og'ir ko'rinishi bilimsizlik jamiyat halokati sababiga aylanishi badiiy aks ettirilgan. Drama 1914-yil 15-yanvarda Samarqandda, 27-fevralda Toshkentda sahnalashtirildi [2], [3].

1917-yilda Rossiyada sodir bo'lgan siyosiy o'zgarishlar Turkiston jadidlari uchun ma'lum darajada imkoniyatlar yaratdi. 16-23-aprel kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlari qurultoyida Behbudiy faol ishtirok etib, mahalliy aholi siyosiy jarayonlardan chetda qolmasligi, sud-huquq tizimi hamda boshqaruvda musulmonlar vakillari bo'lishi zarurligini qat'iy ta'kidladi. Uning bu fikrlari mustamlakachi doiralar tomonidan keskin tanqid qilindi [1], [4]. 1917-yil noyabr oyida Turkiston muxtoriyati e'lon qilinishi jadidchilik harakati uchun tarixiy voqea bo'ldi. Biroq bolsheviklar muxtoriyatni tan olmadi. 1918-yil fevralida Qo'qonga qilingan hujum natijasida shahar qonga botirildi va muxtoriyat tugatildi. Behbudiy esa bu davrda ham ozodlik va ma'rifat yo'lidan chekinmadi.

1919-yil boshida u Buxoro amirligi hududida bo'lganida amir amaldorlari tomonidan fitnada ayblanib hibsga olindi. Ikki oy o'tgach, u Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani yaqinidagi Sho'rtepa hududida hech qanday sudsiz qatl etildi. Uning vafoti Samarqandga bir yil o'tib yetib kelgan xabar orqali ma'lum bo'ldi. Behbudiyning o'limi jadidchilik tarixida katta yo'qotish bo'lib, u o'zbek ma'rifatparvarlik harakatining eng yirik va ta'sirli namoyandalaridan biri sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi [1], [2]. Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati 1917–1918-yillardagi inqilobiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Rossiyada fevral va oktabr inqiloblari natijasida markaziy hokimiyat zaiflashgan bir paytda Turkiston jadidlari milliy siyosiy huquqlarni qo'lga kiritish, o'z taqdirini o'zi belgilash masalasini kun tartibiga qat'iy qo'ydilar. Behbudiy bu jarayonlarning markazida turgan ziyolilardan bo'lib, qurultoylar, siyosiy yig'ilishlar va majlislarda faol ishtirok etdi. U Turkiston xalqlarining siyosiy uyg'onishi, davlat boshqaruvida mahalliy mutaxassislar ishtirokini ta'minlash, maorif tizimini isloh qilish kabi

masalalarni chuqur tahlil qilib, o'zining taklif va tashabbuslari bilan chiqdi [1], [4]. Shu davrda Behbudiy jamiyatning tub islohotlarga ehtiyoj sezayotganini, ayniqsa, sud-huquq, maorif va iqtisodiyot tizimining zamon talablariga javob bermayotganini alohida ta'kidladi. Uning fikricha, xalqning siyosiy faolligini kuchaytirish uchun avvalo savodxonlik darajasini oshirish, zamonaviy fanlarni o'qitish va ijtimoiy ongini uyg'otish zarur edi. U ma'rifatni millatni yuksaltirishning bosh yo'li sifatida ko'rib, barcha islohotlarning markazida aynan ta'lim turishi lozim deb hisoblagan. Bu qarashlar o'sha davr jadidlarining umumiy intellektual pozitsiyasi bilan hamohang edi. Ular jamiyat taraqqiyotini ma'rifatga tayanib amalga oshirish mumkinligini ta'kidladilar [3]. Behbudiy faqat siyosiy jarayonlarda ishtirok etish bilangina cheklanmay, madaniy-ma'rifiy jarayonlarni ham jadallashtirdi. Uning pedagogik qarashlari, yangi usul maktablarini rivojlantirish, darsliklar yaratish borasidagi ishlari o'sha davrdagi ta'lim tizimiga tub o'zgarishlar olib kirdi. U zamonaviy o'qitish metodlarini joriy etish zarurligini ko'rsatib, o'quvchi tafakkurini uyg'otishga asoslangan ta'lim usullarini ilgari surdi. Jadid maktablarida geografiya, tarix, matematika, tabiiyot kabi dunyoviy fanlar o'qitilishi Behbudiy ilgari surgan tamoyillar asosida yo'lga qo'yildi. Bu esa o'sha davr musulmon o'quv yurtlari uchun g'oyat katta yangilik edi [2], [3]. Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi ayollar ta'limiga bo'lgan munosabatdir. U ayollarni ilm va hunarga o'rgatish jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri ekanini isbotlashga intildi. "Oyna" jurnalida ayollarning ijtimoiy mavqeini ko'tarish, ularning savodini oshirish haqidagi maqolalar e'lon qildi. U zamonaviy jamiyatda ayolning o'rni oilaviy hayot bilangina cheklanmasligi, balki u jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisiga aylanishi lozimligi haqidagi g'oyalarni qat'iy ilgari surdi. Behbudiyning bu fikrlari o'sha davr uchun juda yangicha va jur'atli qarashlar bo'lgan [2], [4]. 1917-1918-yillarda siyosiy vaziyat keskinlashgan, bolsheviklar tomonidan mustamlakachilik siyosati yangi shakllarda davom ettirilgan bir paytda Behbudiy milliy muxtoriyat g'oyasini qo'llab-quvvatladi. Qo'qon Muxtoriyati e'lon qilingach, u bu tuzilmani millatning siyosiy uyg'onish sari qo'yilgan qadam sifatida baholadi. Ammo Qo'qon fojiasi 1918-yil fevral oyida shahar qonga botirilishi, jadidlar orzularining vaqtincha puchga chiqishiga sabab bo'ldi. Bu voqealardan so'ng ham Behbudiy kurashdan to'xtamadi, xalqni ma'rifat yo'li bilan uyg'otish g'oyasiga sodiq qoldi [1], [4]. Afsuski, Behbudiy umrining so'nggi yillari siyosiy tazyiqlar, tuhmat va ta'qiblar ostida o'tdi. 1919-yil boshlarida Buxoro amirligi hududida qo'lga olinib, asossiz ravishda fitnada ayblandi. Sudsiz qatli amalga oshirilgan Behbudiyning o'limi nafaqat jadidchilik harakati, balki umuman o'zbek milliy uyg'onish tarixida ulkan yo'qotish bo'ldi. Uning mangu sokinlikka ketgani bir yil o'tgachgina ma'lum bo'lishi bu voqeaning naqadar yashirincha amalga oshirilganidan dalolat beradi [1], [2]. Behbudiy o'z faoliyati davomida maorif, matbuot, teatr, siyosiy islohotlar, xalq ongini uyg'otish kabi ko'plab sohalarda o'chmas iz qoldirdi. Uning asarlari, nashriyot ishlari, pedagogik qarashlari va publitsistik merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Tadqiqotchilar Behbudiyni nafaqat jadidchilik harakatining yetakchi arbobi, balki jahon miqyosidagi ma'rifatparvar ziyoli sifatida baholaydilar. Uning qarashlari zamonaviy ta'lim tizimi, milliy o'zlikni anglash, madaniy islohotlar va ijtimoiy taraqqiyotga doir g'oyalar uchun ham muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilmoqda [5], [6], [7], [8]. Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr boshidagi Turkiston

jadidchilik harakatining eng yorqin namoyandalaridan biri sifatida milliy uygʻonish tarixida alohida oʻrin egallaydi. Uning maʼrifat va islohotlarga asoslangan qarashlari oʻz davri uchun gʻoyat ilgʻor boʻlib, jamiyatning siyosiy, madaniy va ijtimoiy-maʼnaviy taraqqiyotini taʼminlashga qaratilgan edi. Behbudiy xalqni jaholatdan qutqarishning yagona yoʻli sifatida taʼlim va maʼrifatni koʻrsatdi; yangi usul maktablari, teatr, matbuot, kutubxona, darsliklar yaratish orqali milliy ong va intellektual uygʻonishga ulkan hissa qoʻshdi. U siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etib, Turkiston xalqlarining siyosiy huquqlari, oʻz taqdirini belgilash va milliy manfaatlarini himoya qilish uchun kurashdi. Ayniqsa, ayollar taʼlimi, jamiyatni ilmga asoslangan yangilash, modernizatsiya jarayonlarini qoʻllab-quvvatlash borasidagi fikrlari uni zamonaviy fikrlovchi, progressiv ziyoli sifatida namoyon qiladi.

Behbudiyning fojiali oʻlimi jadidchilik harakati uchun katta yoʻqotish boʻldi, ammo uning maʼnaviy merosi, maʼrifatparvarlik tamoyillari, ilgʻor gʻoyalari bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini saqlab qolmoqda. Uning hayoti va faoliyati xalqni uygʻotish, ozodlik uchun intilish, maʼrifat orqali taraqqiyot sari yetaklash gʻoyalarining yorqin namunasi sifatida tarixda oʻchmas iz qoldirdi. Shu bois Behbudiy merosi nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ijtimoiy-maʼnaviy hayot uchun ham muhim ilhom manbai boʻlib xizmat qiladi

ADABIYOTLAR \ REFERENCES:

1. A.Rasulov Mahmudxoʻja Behbudiy. Toshkent nashryoti 1998.
2. Abdullayev Z. Mahmudxoʻja Behbudiy. T.: Akademya, 2017.
3. S.Qodirov milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti. T.: Manaviyat nashriyoti. 2004.
4. A.Qayumov Jadidchilik: tarix, mohiyat, taraqqiyoti-Toshkent Universitet nashryotin 1999.
5. Baxtiyarova, F. "MODERN TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS." Ilm-Fan Va taʼlim 1.1 (2023).
6. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Education of Young People in Eastern and Modern Spirit Taking Historical Values into Account." Innovative Science in Modern Research (2023): 156-157.
7. Berikbaev, Alisher Alikulovich. "Development of competence skills of art education students." International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24.4 (2020): 6984-6988.
8. MORAL AND AESTHETIC PRINCIPLES OF EASTERN THINKERS: APPLICATION IN MODERN EDUCATION. (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 5(05), 1489-1494.
<https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/4677>.